



XALQ DEPUTATLARI KATTAQO'RG'ON TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 30-iyun

VII-11-76-7-96-K/25

Kattaqo'rg'on tumani

Tuman mahalliy budjetining qo'shimcha manbalaridan foydalanish to'g'risida

“2025-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2022-yil 8-apreldagi KQ-331-IV-sonli, 2024-yil 29-noyabrdagi KQ-5-V-sonli Qarorlari, Byudjet Kodeksining 126-moddasi hamda tuman mahalliy byudjetining qo'shimcha manbalari hisobidan amalga oshiriladigan tadbirlarni umumlashtiruvchi komissiyasi yig'ilish qaroriga asosan va “Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida”gi xalq deputatlari tuman Kengashining VII chaqiriq o'n birinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Tuman Iqtisodiyot va moliya bo'limi (M.Obbozov)ning 2025-yil 26-maydagi mahalliy budjetining 2025-yil 1-yanvar holatiga erkin qoldiq mablag'lari, 1-chorak daromadlar rejasini orttirib bajarilgan qismidan tushgan mablag'laridan foydalanish to'g'risidagi 02/02-38-335-sonli taklifi hamda 2025-yil 17-iyundagi tuman mahalliy byudjetining qo'shimcha manbalari hisobidan amalga oshiriladigan tadbirlarni umumlashtiruvchi komissiyasi yig'ilishining 6-sonli bayoni qarori ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman mahalliy byudjetining 2025-yil 1-yanvar holatiga erkin qoldiq mablag'lari hisobidan tuman hokimining 2025-yil 30-maydagi 146-7-96-Q/25-sonli qaroriga asosan Qodirov Asomiddin To'liqinovichning foydasiga **60,6 mln (oltmish million olti yuz ming) so'm** mablag' tuman hokimligiga ajratilishi tasdiqlansin.

3. 2025 yil 1-chorak daromadlar rejasini orttirib bajarilgan qismi hisobidan 2025-yil yanvar-iyun oylariga tuman hokimi o'rinbosari, oila va xotin-qizlar bo'limi boshlig'i Djumayeva Sayyora Xamdamovnaga ustama to'lash uchun **37,3 mln (o'ttiz yetti million uch yuz ming) so'm** mablag' tuman hokimligiga ajratilsin.

4. Tuman hokimligi bosh hisobchisi (O.Niyazov)ga va tuman Iqtisodiyot va moliya bo'limi (M.Obbozov)ga tuman mahalliy byudjetining qo'shimcha manbalari mablag'lari hisobidan ajratilgan mablag'lardan maqsadli foydalanish hamda ishlatilishi yuzasidan nazorat qilish vazifasi yuklatilsin.

5. Tuman Iqtisodiyot va moliya bo'limi (M.Obbozov)ga tuman mahalliy budjetiga tegishli o'zgartirishlar kiritish, shuningdek tuman G'aznachilik bo'linmasi (N.Vasiyev)ga

mablagʻlarni amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibda budget mablagʻlarining toʻgʻri va maqsadli xarajatga chiqarilishini taʼminlash boʻyicha shaxsiy javobgarlik masʼuliyati yuklatilsin.

6. Mazkur Qaror ijrosi xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar boʻyicha doimiy komissiyasi (A.Xudayberdiyev) va tuman hokimining birinchi oʻrinbosari M.Zavqiyev zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



NASRIDDINOV
JAMSHID
TULKINOVICH